

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA AJRATILADIGAN SUBSIDIYALARINING ROLI

*Ismatullayev Hikmatillo Izzatillo o‘g‘li*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu tezis qishloq xo‘jaligiga ajratiladigan subsidiyalarning rolini, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar va bizning mamlakatimizdagi qo‘llanilishini o‘rganadi. Qishloq xo‘jaligining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ish o‘rinlarini yaratish, eksport daromadlarini oshirish va sanoatni rivojlantirishdagi hissasini o‘rganadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning muhim ahamiyati va samaradorlikni oshirishdagi o‘rni ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, subsidiya, eksport, tovar, iqtisodiyot.

### **O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi subsidiyalari Subsidiya yo‘nalishlari.**

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga ajratiladigan subsidiyalarning asosiy yo‘nalish va tarmoqlari quyidagilardan iborat:

Turli xil ekinlar, jumladan, dukkakli ekinlar, texnik ekinlar, moyli ekinlar, sabzavotlar, ko‘katlar, poliz ekinlari, kartoshka, ozuqabop ekinlar, dorivor o‘simliklar va donli ekinlar (masalan, bug‘doy va boshqa boshqoli donlar) uchun suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Paxta va don ekinlarini sug‘orishda samaradorlikni oshirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ko‘chma generatorlar sotib olish uchun ham qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilmoqda.

Bundan tashqari, paxta va boshqoli don yetishtiruvchi xo‘jaliklar uchun nasos agregatlari va sug‘orish quduqlari tomonidan iste‘mol qilingan elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar ajratilmoqda. 2024–2025-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida paxta, boshqoli don va sholi yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga lazerli qurilmalarga ega, yer tekislagichlar yordamida yer tekislash xarajatlarini qoplash uchun maxsus subsidiyalar berilishi rejalashtirilgan.

Sug‘orish ishlari va nasos stansiyalari qurish : - daryolar, kanallar va boshqa suv obyektlaridan suv chiqarish, vositalarini sotib olish, va undan oqilona foydalanish kerak.

Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xuraki uzumzorlar va yangi intensiv bog‘lar uchun tomchilatib sug‘orish tizimlari o‘rnatilib, suv xavzalaridan suv tortish uchun burg‘ulangan quduqlar va nasos stansiyalari qurish rejalashtirilgan. Shuningdek, yangi

limonzorlar barpo etish, limon ko‘chatlarini sotib olish, intensiv bog‘ va xuraki tokzorlar uchun ko‘chatlar va payvandtaglarni xarid qilish xarajatlarini qisman qoplash ko‘zda tutilgan.

Uzum quritish (mayiz) va qadoqlash liniyalari uchun subsidiya ajratilishi, limon yetishtirishda tabiiy gaz o‘rniga muqobil energiya qurilmalarining xarajatlarini qoplash ham rejalashtirilgan. Dorivor o‘simliklarning plantatsiyalariga suv chiqarish uchun quduqlar qazish va nasos stansiyalari qurish xarajatlarini qoplash hamda mevali bog‘lar yoki uzum plantatsiyalarida qayta tiklanuvchi elektr energiya qurilmalarini joriy etish ham qo‘llab-quvvatlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sovitkich sig‘imlari qurish va jihozlash uchun subsidiya ajratiladi, shuningdek, issiqxonalarini ko‘mirda isitish uchun qozon sotib olish xarajatlari ham qisman qoplanadi. Issiqxona xo‘jaliklarida xorijdan malakali agronomlar, entomologlar va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish uchun subsidiya ham ajratiladi. Mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalariga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarini qoplash ham ko‘zda tutilgan.

Tomorqa yer egalari bilan hamkorlik asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, omborxonalar qurilishi va uni zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlash, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish, saralash va qadoqlash jarayonlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Ikkinchi yo‘nalish sifatida, eksportga yo‘naltirilgan va serdaromad ekinlar ekish uchun namunaviy o‘quv-tajriba maydonlarini tashkil qilish va shu jarayon xarajatlarini qisman qoplash ko‘zda tutilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalarini xodimlari uchun o‘quv kurslari tashkil etilib, ularning xarajatlarini qoplash ham rejalashtirilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari: - oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini tayyorlash; - oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarning infratuzilmasini yaratish; - oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va chuqur qayta ishlash sohasiga xorijiy ekspertlarni jalb qilish.

Uzumchilik va vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida bir qator muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Avvalo, mahalliy sharoitda "in-vitro" usulida yetishtirilgan sanoatbop tok ko‘chatlari va payvandtagli tok ko‘chatlari uchun xarajatlarning bir qismini qoplash rejalashtirilgan. Shuningdek, sanoatbop uzum ko‘chatlarini shpaler tizimiga ko‘tarish va bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash ham muhim vazifalardan biridir. Tabiiy vino va brendi eksportini kengaytirish, vinochilik asbob-uskunalarini xarid qilishni rag‘batlantirish va sanoatbop uzumzorlar uchun tomchilatib sug‘orish tizimlari, burg‘ulangan quduqlar va nasos stansiyalarini qurish kabi chora-tadbirlar ham amalga oshiriladi.

Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik: - import qilingan nasldor qoramol, qo‘y va echkilar uchun subsidiya.

Ipakchilik va jun sanoati: - yaylov yerlarida suv inshootlarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish; - qorako‘l va qorako‘lcha teri eksporti.

### **Xulosa**

Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga ajratiladigan subsidiyalar va ularning turli tarmoqlardagi qo‘llanilishi batafsil tahlil qilingan. Asosiy subsidiyalash yo‘nalishlari ichida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, paxta, don, sabzavot va boshqa ekinlarni samarali sug‘orish tizimlari bilan ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ko‘chma generatorlar, shuningdek, yangi intensiv bog‘lar, uzumzorlar va issiqxonalar uchun qo‘llab-quvvatlash choralari mavjud. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun limon yetishtirish, vinochilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksportni oshirishga qaratilgan subsidiya tizimi joriy etilgan. Mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, o‘quv kurslari tashkil etish va texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish uchun ham subsidiyalar ajratiladi. Yangi texnologiyalarni qo‘llash, infratuzilma yaratish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu choralar O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sohasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://agrosubsidiya.uz/>
2. <https://eprints.soas.ac.uk/16754/>
3. Agricultural Producer Subsidies. Navigating Challenges and Policy Considerations, by David Amaglobeli, Todd Benson, and Tewodaj Mogues, NOTE/2024/002.
4. USDA (United States Department of Agriculture)
5. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development)
6. FAO (Food and Agriculture Organization)